**OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA**
**KIRUVCHILAR UCHUN**

# SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _

F.I.O Imzo

## ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo‘yicha 30 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag‘i raqami bir xil bo‘lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma’lum qiling.

**Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to‘ldirilgan yoki to‘ldirilmagan va imzosi qo‘yilmagan hollarda e’tirozlar ko‘rib chiqilmaydi**

**FANLAR:**

*Blok 1: Tarix*

TestLIDER
JALOL BOLTAYEV

Savollar kitobi raqami: 6386807

**Urganch – 2018**

*DTM EXEMPLER*
*(“DTM 2017” testlar bazasi asosida tuzilgan na’munaviy test)*

TARIX

**1.** Inson taqinchoqlar yasashni qaysi davrda oʻrganib oldi?
A) *mezolit davrida* B) *neolit davrida oxirida*
C) *soʻnggi paleolit davrida* D) *eneolit davrida*

**2.** Miken davlati qayerda joylashgan?
A) *Yunonistonning janubida* B) *Krit orolida*
C) *Oʻrta yer dengizida* D) *Fors qoʻltigʻida*

**3.** Xivada Asfandiyorxon hukmronligi davrida Buxoroda kim hukmronlik qilgan?
A) *Imomqulixon* B) *Subxonqulixon*
C) *Abdulaziz* D) *Ubaydullaxon*

**4.** Bir davrda sodir boʻlgan voqealarni belgilang.
1) Saklar oʻz yerlarini himoya qilish uchun harbiy ittifoq tuzdilar; 2) Misr yana yagona davlatga birlashdi, mamlakat iqtisodiyoti va madaniyatida yuksalish boshlandi; 3) Yangi Bobil podsholigi vujudga keldi; 4) poytaxti Tushpa shahri boʻlgan davlat gullab-yashnadi; 5) "Avesto"ning ilk paydo boʻldi; 6) Oʻrta Osiyoda temirdan ilk mehnat qurollari tarqaldi
A) *1, 2, 3* B) *2, 3, 4* C) *2, 3, 6* D) *4, 5, 6*

**5.** Yunonlar Attika gʻarbiy qismida "Akropol" qal'asini qurgan davrda jahon tarixida yana qanday voqea boʻlgan?
A) *Old Osiyoda ilk davlatlar vujudga keldi*
B) *Shumerlar mixxat yozuvini ixtiro qilishdi*
C) *Oʻrta Osiyoda zardushtiylik dini vujudga keldi*
D) *"Buyuk meridianal yoʻl" vujudga keldi*

**6.** Qachon Amvrosiy Avrelian brittlarni birlashtirdi?
A) *VI asr boshlarida* B) *V asr boshlarida*
C) *VI asr oʻrtalarida* D) *V asr oxirlarida*

**7.** Quyidagi sulolarning hukmronlik yillarini kamidan koʻpiga qarab joylashtiring.
1) somoniylar; 2) safforiylar; 3) tohiriylar
A) *3, 2, 1* B) *1, 3, 2* C) *1, 2, 3* D) *2, 1, 3*

**8.** Quyidagi siyosiy partiyalarni tashkil topgan davriga qarab xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.
1) Italiya sotsialistik partiyasi; 2) Fransiya ishchi partiyasi; 3) Germaniya sotsial-demokratik partiyasi; 4) Avstriya sotsial-demokratik partiyasi; 5) Argentina sotsialistik partiyasi, 6) Rossiya sotsial-demokratik ishchi partiyasi
A) *3, 2, 4, 1, 6, 5* B) *2, 3, 1, 4, 5, 6*
C) *3, 2, 4, 1, 5, 6* D) *3, 1, 4, 2, 6, 5*

**9.** Uch palatali parlament mavjud boʻlgan davlatda 1912-yilda qanday voqea sodir boʻlgan?
A) *siyosiy partiyalar ichida eng yirigi tuzildi*
B) *choʻyan ishlab chiqarish 17,6 mln tonnaga yetdi*
C) *ogʻir iqtisodiy inqiroz yuz berdi*
D) *Liviyani oʻz mustamlakasiga aylantirdi*

**10.** Tarixdan ma'lumki, 1914-yilda Yuan Shikay Prezident sifatida cheklanmagan hokimiyatga ega boʻldi. Keyinchalik mamlakatda qanday ishlar amalga oshirildi?
1) Mamlakatda harbiy diktatura oʻrnatildi;
2) Yuan Shikay 5 yil muddatga prezident etib saylandi; 3) Inqilob qoʻshini qurolsizlantirildi.
4) Respublika boshqaruv organlari tugatildi
A) *1, 4* B) *2, 3* C) *2, 4* D) *1, 2, 3, 4*

**11.** Xiva xonligini boʻysundirgan Buxoro xonlarini aniqlang.
1) Abdullaxon I; 2) Ubaydullaxon; 3) Elbarsxon;
4) Abdullaxon II; 5) Subhonqulixon;
6) Abdulazizxon
A) *1, 2, 5* B) *3, 4, 6* C) *2, 4, 6* D) *2, 3, 5*

**12.** Tarixiy haqiqatga muvofiq kelmaydigan qatorni toping.
A) *1806-yilda Eltuzarxon vafot etgach, taxtga uning o‘g‘li Muhammad Rahimxon I o‘tirdi*
B) *Xiva xonligida xonlik hayotiga oid kundalik masalalarni hal etish uchun ta’sis etilgan Kichik Kengash tarkibida xondan tashqari mehtar, qo‘shbegi, devonbegi, naqib va shayxulislom qatnashganlar*
C) *1731-yilda Rossiya o‘z elchisi M.Tevkelevni Abulxayrxon huzuriga jo‘natadi. Muzokaralar natijasida ham Kichik juz, ham Quyi qoraqalpoqlar Rossiya fuqaroligiga qabul qilinadi*
D) *Sibir ma’muriyati 1794- yilda o‘z elchilari A.T.Beznosikov va T.S.Burnashevlarni Toshkentga jo‘natadi. Biroq ular Toshkentga kela olmay Buxorodan qaytishga majbur boladilar*

**13.** Quyidagi voqealarni xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.
1) Yuqori Peru Ispaniya zulmidan ozod bo‘ldi; 2) Singapur Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylandi; 3) Muhammad Rahimxon I Marvni Buxorodan tortib oldi; 4) Londonda Britaniya, Fransiya, Rossiya o‘rtasida Turkiyaga qaram Gretsiyaga muxtoriyat huquqi berilishini ko‘zda tutuvchi bitim imzolandi
A) *3, 2, 4, 1* B) *3, 1, 4, 2* C) *3, 1, 2, 4*
D) *1, 2, 4, 1*

**14.** Namangan shahri manbalarda tilga olina boshlangan davrda jahon tarixida sodir bo‘lgan voqealarni belgilang.
1) Nyuton eng katta teleskoplardan ko‘ra osmon jismlarini yaxshiroq ko‘rsatadigan kichkina oynali teleskopni ixtiro qildi; 2) ingliz shifokori E.Jenner chechakka qarshi emlash usulini kashf etdi; 3) A.Levenguk 300 marta kattalashtirib ko‘rsatadigan mikroskop yaratdi; 4) ruda portlatish yo‘li bilan olina boshladi; 5) Shimoliy Amerikada yagona ichki bozor shakllana boshladi
A) *1, 2, 4* B) *3, 4, 5* C) *1, 3, 4* D) *2, 3, 5*

**15.** Angliyada o‘rta asrlarda qaysi hujjat vassallardan odatdagidan ko‘p to‘lov olishni taqiqlagan?
A) *“Buyuk ozodlik xartiyasi”*
B) *“Mayl end”* C) *“Huquqlar to‘g‘risida bill”*
D) *“Huquqlar deklaratsiyasi”*

**16.** Xorazmshoh Takash davrida tugatilgan davlatni aniqlang.
A) *g‘aznaviylar davlati* B) *somoniylar davlati*
C) *Dehli sultonligi* D) *qoraxoniylar davlati*

**17.** Bir yilda bo‘lib o‘tgan voqealarni aniqlang?
1) Abdulla Avloniy “Shuhrat” gazetasiga asos soldi; 2) Islomxo‘ja minorasi qurilishi boshlandi; 3) V.Vyatkin Ulug‘bek rasadxonasi qoldiqlarini topdi; 4) “A-Meta” sindikati tashkil topdi; 5) Munavvarqori boshchiligida “Jamiyati xayriya” tuzildi
A) *1, 4, 5* B) *2, 3* C) *3, 4, 5* D) *2, 5*

**18.** Buyuk Britaniyada parlament vakolati 6 yil (a) va 5 yil (b) qilib belgilangan davrda hukmronlik qilgan Xiva xonlarini aniqlang.
A) *a-Abulfayzxon, b-Olimxon*
B) *a-Sherg‘ozixon, b-Asfandiyorxon*
C) *a-Elbarsxon, b-Asfandiyorxon*
D) *a-Sherg‘ozixon, b-Muhammad Rahimxon II*

**19.** “Margaret Techcher” davrida bo‘lib o‘tgan voqealarni belgilang.
1) O‘z davlatini SSSR ga qo‘shishni so‘ragan shaxs uy qamog‘ida saqlanadigan bo‘ldi; 2) Xorvatiya, Makedoniya mustaqil bo‘ldi; 3) Serbiya va Chernogoriya o‘z federatsiyalarini YURI deb atadi; 4) JAR prezidentligiga F.Klerk saylandi; 5) XDP rahbari A.Moro o‘ldirildi; 6) AQSh va Xitoy o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi; 7) Hind tilini davlat tiliga aylantirishga harakat qilgan shaxsning o‘g‘li o‘ldirildi; 8) Birma Ittifoqi endi Myanma Ittifoqi deb ataladigan bo‘ldi.
A) *1, 2, 4, 5, 6, 7, 8* B) *3, 4, 6, 7* C) *2, 4, 7, 8*
D) *4, 6, 8*

TestLIDER JALOL BOLTAYEV

**20.** Milliy xavfsizlik xizmati qaysi organ huzurida tuzilgan?
A) *Prezident* B) *Mudofaa vazirligi*
C) *Ichki ishlar* D) *Oliy majlis*

**21.** 2000-yil 11-fevralda bo‘lgan Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Prezident tavsiyasiga ko‘ra Vazirlar Mahkamasi tarkibini aniqlang.
A) *34 kishidan iborat – Bosh Vazir, Bosh Vazirning birinchi o‘rinbosari, 8 nafar Bosh Vazir o‘rinbosarlari, 15 nafar vazir va 9 nafar Davlat qo‘mitalari raislari*
B) *33 kishidan iborat – Bosh Vazir, bosh Vazirning birinchi o‘rinbosari, 7 nafar Bosh Vazir o‘rinbosarlari, 14 nafar vazir va 10 nafar Davlat qo‘mitalari raislari*
A) *34 kishidan iborat – Bosh Vazir, Bosh Vazirning birinchi o‘rinbosari, 8 nafar Bosh Vazir o‘rinbosarlari, 14 nafar vazir va 10 nafar Davlat qo‘mitalari raislari*
D) *33 kishidan iborat – Bosh Vazir, bosh Vazirning birinchi o‘rinbosari, 8 nafar Bosh Vazir o‘rinbosarlari, 14 nafar vazir va 9 nafar Davlat qo‘mitalari raislari*

**22.** Urush yillarida fashistlar harbiy asirlardan qanday harbiy qo‘shilmalar tuzishdi.
1) “Sibir legioni”; 2) “Turkiston legioni”; 3) “Volga-Ural legioni”; 4) “Rus krestyanlari legioni”; 5) “Rus ozodlik armiyasi”
A) *2, 3, 5* B) *1, 2, 4* C) *2, 3, 4* D) *1, 4, 5*

**23.** “O‘zbekiston SSRning davlat tili haqida»gi qonunni amalga oshirish davlat dasturi qabul qilingan yilda jahon tarixida qanday voqea sodir bo‘lgan?
A) *Timishoarada (Transilvaniya) protestant ruhoniylarni ko‘chirish jarayonida g‘alayonlar kelib chiqdi*
B) *Brashovada “Yo‘qolsin diktator” shiori ostida namoyish bo‘lib o‘tdi*
C) *Ruminiyada I.Iliyesku Prezident etib saylandi*
D) *Xorvatiyada F.Tujman hukumat rahbarligiga keldi*

**24.** XX asrning 50-yillarida Islom Respublikasi, XX asrning ikkinchi yarmida parlament respublikasi deb e'lon qilngan davlatni aniqlang.
A) *Pokiston* B) *Eron* C) *Turkiya*
D) *Afg‘oniston*

**25.** Islom Karimov bilan 2002-yilda “Do‘stlik, strategik sheriklik va xalqaro hamkorlik to‘g‘risida”gi bayonotni imzogan Yaponiya Bosh Vaziri kim edi?
A) *J.Koidzumi* B) *S.Abe* C) *Y.Fukudo*
D) *M.Bosh*

**26.** Sovet davlati 1932-yilda qaysi davlatlar bilan o’zaro hujum qilmaslik to‘g‘risida shartnoma imzoladi?
1) Finlandiya; 2) Estoniya; 3) Latviya; 4) Litva; 5) Polsha; 6) Fransiya; 7) Shvetsiya; 8) Daniya
A) *1, 2, 3, 4* B) *1, 3, 7, 8* C) *1, 2, 5, 6*
D) *3, 4, 5, 6*

**27.** “Daues rejasi”da Germaniya sanoatini qanday tiklash ko‘zda tutilgan edi?
1) mashinalashgan sanoat inqilobini amalga oshirish orqali; 2) chet el sarmoyasi yordamida; 3) Germaniya va Rossiya o‘rtasidagi savdoni yanada rivojlantirish yo‘li bilan; 4) ichki ishlabchiqarishni rivojlantirish orqali
A) *1, 2* B) *3, 4* C) *2, 3* D) *2, 4*

**28.** AQSHning qaysi prezidenti tashabbusi bilan “Taraqqiyot yo‘lida ittifoq” dasturi ishlab chiqilgan?
A) *J.Kennedi* B) *L.Jonson* C) *R.Nikson*
D) *J.Karter*

**29.** Bir yilda bolib o‘tgan voqealarni aniqlang.
1) O‘zbekiston SSSR tarkibiga kiritildi;
2) 5-Butun Buxoro qurultoyi BXSRni Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi deb e’lon qildi;
3) O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining Favqulodda sessiyasi “Yer va suvni milliylashtirish to‘g‘risida” dekret qabul qildi;
4) RKP(b) Markaziy Qo‘mitasiga “Xorazmda milliy masalani hal etish to‘g‘risida xat» kelib tushdi; 5) Bekobodda Xilkovo sement zavodi qurildi
A) *2, 4, 5* B) *2, 3, 5* C) *2, 5* D) *1, 3*

**30.** 1952-yil fevralda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Komportiyasi MQning X plenumda kimlar panturkizmni targ‘ib qilishda ayblandi?
A) *A.Boboxo‘jayev va O.Aminov*
B) *V.Zohidov va A.Boboxo‘jayev*
C) *Turob To‘la va M.Shayxzoda*
D) *Turob To‘la va O.Aminov*

TestLIDER
JALOL BOLTAYEV

# TARIX TestLIDER

## testlar turkumi

**Jalol BOLTAYEV**
**(97) 299 00 66**

### Tarix TestLIDER nima?

Tarix_TestLIDER bu – Jalol Boltayev tomonidan ishlab chiqilgan tarixni innovatsion o'qitish tizimining nomi va u tomonidan tuzilgan 8 xil darajadagi testlardir. Bu testlarni siz TestLIDER dasturida (EXE va APK) online tarzda ham ishlashingiz mumkin.

Tarix siz uchun juda qiyin va murakkab tuyilyaptimi? Siz tarixni qiyin fan deb hisoblaysizmi? Yo'q, aslo unday emas! Buning uchun siz tarixni aniq reja bo'yicha tuzilgan tizim asosida o'qishingiz kerak. Bu tizim bizda yaratilgan. Har kitob bo'yicha 8 bosqichli tizimdan o'tib bo'lganingizdan so'ng siz shu kitobni 95-100 % gacha o'zlashtirasiz.













- KUNDALIK
- SAYLANMA
- MAXSUS
- DTM 2013-2017
- DTM (exempler)
- DTM (standart)
- Axborotnoma
- SINOV 30
- XRONOLOGIYA
- KUCHLILAR UCHUN

Telegram kanalimizga a'zo bo'ling va testlarni bepul yuklab oling!

t.me/@testLIDERtarix